



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-iyul

157-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 7-iyul kungi №344-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash to'g'risida

Tumanda 2025-yil hosili uchun ekilgan g'o'zani parvarishlash, jumladan, paxta maydonlariga mahalliy o'g'it chiqarish, azotli mineral o'g'itlar va biostimulyatorlar bilan oziqlantirish, zararli organizmlarga qarshi kurashish, g'o'zani o'sishini boshqaruvchi retardantlar bilan ishlov berish, paxta terish mashinalarini xarid qilish, paxta qabul qilish maskanlarini mavsumga tayyorlash tadbirlarini tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 7-iyul kungi №344-11-0-F/25-sonli farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Joriy yilning 5-iyulidan 20-avgustiga qadar "Zarbdor 45 kunlik" e'lon qilinsin.

3. G'o'za parvarishida dolzarb 45 kunlikda belgilangan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha "Zarbdor 45 kunlik" chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga;

g'o'za parvarishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarini muvofiqlashtirib borish maqsadida tuman Shtabi tarkibi 2-ilovaga;

4. Tuman hokimining o'rinnbosari K.Jo'rayev, Qishloq xo'jaligi bo'limi (B.Burxonov), Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo'limi (Sh.Xasanovlar)ga:

2025-yil hosili uchun ekilgan g'o'za maydonlarini konturlar kesimida xatlovdan o'tkazib, g'o'zaning rivojlanishini toifalangan "yaxshi", "o'rta" va "qoloq" maydonlarga ajratib, amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarni "fermerbay" belgilash;

"qoloq" deb topilgan maydonlarda intensiv agrotexnik tadbirlarni o'tkazish va qoloqlikdan chiqarish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining o‘rnbosari K.Jo‘rayev, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (J.Turdaliyev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (Sh.Xasanov), tuman hokimligi bilan birgalikda:

g‘o‘za maydonlariga zarbdor 45 kunlikda gektariga 3 tonnadan jami 15 600 tonna mahalliy o‘g‘it chiqarish;

g‘o‘zani 15-iyulgacha kunma-kun grafik asosida gektariga 300 kg.dan azotli mineral o‘g‘itlar bilan 3-oziqlantirishni tashkil qilish;

azotli mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilgan maydonlarda sharbat usulida sug‘orish choralarini ko‘rsin.

6.Suv yetkazib berish xizmati direktori (D.Yuldashev), Nasos stansiyalari va energetika bo‘limi (X.Qulpidinov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

g‘o‘zani 1-sug‘orish ishlarini uch kun muddatda yakunlasin;

barcha manbaalardan olinayotgan suvdan samarali foydalanib, belgilangan limit doirasida oxirgi “qulqoq”gacha o‘z vaqtida suvni yetkazib berilishini ta’minlasin;

xavo harorati keskin ko‘tarilib ketganligi sababli g‘o‘zani chanqashiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rsin, suvni yo‘qotishlarni oldini olish hamda g‘o‘zaga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida tungi sug‘orishni tashkil qilsin.

7.Tuman hokimining o‘rnbosari K.Jo‘rayev, O‘simpliklar karantini va himoyasi bo‘limi (I.Raximov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (Sh.Xasanov) va tuman hokimligi:

g‘o‘zani biostimulyatorlar bilan bargidan oziqlantirish, g‘o‘zani o‘sishini boshqaruvchi retardantlar bilan ishlov berish tadbirlarini tizimli amalga oshirsin.

o‘rgimchakkanaga qarshi maxsus akarisidlar bilan, ko‘sak qurtiga qarshi insektisidlar bilan tunda ishlov berishni tashkil qilsin.

O‘simpliklar karantini va himoyasi tuman bo‘limi (I.Raximov):

g‘o‘za maydonlarida ko‘sak qurti va o‘rgimchakkanani tarqalishini doimiy monitoring qilib, ularga qarshi profilaktik ishlovlarni o‘z vaqtida o‘tkazilishiga mas’ul etib belgilansin.

Biolaboratoriya mudirlari bilan birgalikda g‘o‘za maydonlariga oltinko‘z, trixogramma va brakon biomahsulotlarini belgilangan sxemada tarqatilishini tashkil qilsin.

G‘o‘za maydonlarida ko‘sak qurti va o‘rgimchakkanaga qarshi biologik va kimyoviy usulda kurashish hamda suspenziya sepish ishlarini sifatli va samarali amalga oshirish uchun tajribali va malakali soha mutaxassislarini jalb qilgan xolda fermer xo‘jaliklari ishtirokida ko‘rgazmali amaliy seminarlar o‘tkazsin.

8. Tuman hokimining o‘rnbosari K.Jo‘rayev, Agro bank (U.Razzoqov), tuman hokimligi bilan birgalikda 10 ta paxta terish mashinalariga avans mablag‘larini 15-iyulgacha to‘liq to‘lab berilish chorasini ko’rsin.

9.Tuman hokimining o‘rnbosari K.Jo‘rayev, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (Sh.Xasanov), tuman hokimligi, paxta-to‘qimachilik klasteri bilan birgalikda:

paxta qabul qilish maskanlarini 1-avgustga qadar paxta yig‘im-terim mavsumiga tayyorlasin.

bunda, paxta qabul qilish maskanlaridagi elektron tarozi, kuzatuv kameralar va laboratoriyalarni soz xolatga keltirsin.

10.Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov), Fermerlar kengashi (A.Akbarov), tuman hokimligi bilan birgalikda dala shiyponlarini ta’mirlab, obodonlashtirib paxta yig‘im-terimi mavsumiga tayyorlash choralarini ko’rsin.

11.Belgilansinki, “Zarbdor 45 kunlik”da g‘o‘za parvarishida belgilangan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda qoloqlikka yo‘l qo‘ygan fermer xo‘jaliklari va mutasaddi rahbarlarga nisbatan qat’iy choralar ko‘riladi.

12. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rnbosari K.Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumanı hokimining
2025-yil 10-iyuldagı
157-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumanida g‘o‘za parvarishida belgilangan agrotexnik tadbirlarni amalga
oshirish bo‘yicha 2025-yil 5-iyuldan 20-avgustgacha “Zarbdor 45 kunlik”
chora-tadbirlar
D A S T U R I**

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Tashkiliy masalalar.				
1.	Tumanda g‘o‘za parvarishida belgilangan agrotexnik tadbirlarni tizimli amalga oshirish maqsadida 5-iyuldan 20-avgustgacha “ Zarbdor 45 kunlik ” e’lon qilish.	<p>1. Zarbdor 45 kunlik davomida har bir fermer xo‘jaligi va “Fergana Oseana” MCHJ klasterida amalga oshiriladigan tashkiliy va agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida sifatli amalga oshirish.</p> <p>2. “Zarbdor 45 kunlik”da belgilangan agrotexnik tadbirlarni fermer xo‘jaliklari, klaster va soha mutasaddilariga yetkazish.</p>	2025-yil 5-iyul- 20-avgust bir kun muddatda	Tuman hokimining o‘rinbosari (K.Jo‘rayev) , Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi bo shlig‘ining 1-o‘rinbosari (B.Burxonov) , Tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov) , Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev) , Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov) , O‘simgiliklar karantini va himoyasi bo‘limi (I.Raximov) , tuman hokimligi

<p>2. “Zarbdor 45</p> <p>kunlikda” g‘o‘za maydonlarida oziqlantirish, suspenziya sepish, g‘o‘zani o‘sishini boshqaruvchi retardantlar bilan ishlov berish, ko‘sak qurti va o‘rgimchakkanaga qarshi kurash, mexanizator, suvchi va ishchilarga ish haqlari berishni tizimli tashkil etish.</p>	<p>1. tumanda “G‘o‘za parvarishi Shtabi”ni tashkil qilish.</p> <p>2. Har bir fermer xo‘jaligida mexanizatorlar va boshqa ishchilarga barcha shart-sharoitlarni to‘liq yaratish, issiq ovqat bilan ta’minalash.</p> <p>3. Mexanizatorlarga, chopiqchilarga va suvchilarga ish xaqlarini o‘z vaqtida berilishini ta’minalash.</p> <p>4. Suvdan samarali foydalanish maqsadida har 5 hektar maydonga 1 nafardan 1 040 nafar suvchilarni ishga qabul qilish ularga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, ish xaqlarini o‘z vaqtida berish, ish qurollari, tungi yoritgich va rezina etik bilan ta’minalash.</p> <p>5. G‘o‘zaga suvni sharbat usulda berishni tashkil qilish.</p>	<p>Bir kun muddatda</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>doimiy</p>	<p>Tuman hokiminining o‘rinbosari (K.Jo‘rayev), Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (B.Burxonov), Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov), ATB Agro bank (U.Razzoqov), tumanlar hokimligi, fermer xo‘jaliklari rahbarlari</p>
--	---	---	--

3.	<p>Tumandagi “Fergana Oseana” MCHJ paxta-to‘qimachilik klasteri va fermer xo‘jaliklarida 5200 hektar g‘o‘za maydonlarida paxta hosildorligini o‘rtacha 41,8 s/ga yetkazish.</p>	<p>1. Xitoy texnologiyasida (76 sm sxemada, qo‘shqator usulda pylonka ostiga tomchilatib sug‘orish tizimi asosida) chigit ekilgan maydonlarda Xitoylik mutaxassislar bilan birga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. Har bir hududda Xitoy texnologiyasida paxta yetishtirish bo‘yicha olimlar ishtirokida amaliy seminarlar o‘tkazish.</p>	<p>2025-yil iyul-avgust 2025-yil iyul-avgust</p>	<p>Tuman hokimining o‘rribbosari (K.Jo‘rayev), Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi bo shlig‘ining 1-o‘rribbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev), tuman hokimligi</p>
----	---	---	--	--

II. G‘o‘zaga ishlov berish bo‘yicha.

4.	<p>G‘o‘zaning rivojlanishini toifalangan “yaxshi”, “o‘rta” va “qoloq” maydonlarga ajratib, amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarni “fermerbay” belgilash.</p>	<p>1. Soha mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlar tuzgan holda 3 kun muddatda g‘o‘za maydonlarini konturlar kesimida xatlovdan o‘tkazib, “yaxshi”, “o‘rta” va “qoloq” maydonlarga ajratish.</p> <p>2. Har bir fermer xo‘jaligini qoloq maydonlari bo‘yicha chora-tadbir belgilash.</p> <p>3. Qoloq maydonlarni zudlik bilan mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, biostimulyatorlar bilan bargidan oziqlantirish va sharbat bilan sug‘orishni tashkil qilish.</p>	<p>Uch kun muddatda Bir kun muddatda 2025-yil 5-iyuldan – 5- avgustgacha</p>	<p>Tuman hokimining o‘rribbosari (K.Jo‘rayev), tuman Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining 1-o‘rribbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev), Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov), O‘simgiliklar karantini va himoyasi bo‘limi</p>
----	---	---	--	---

		Bunda, bir oy muddatda 2-marta oziqlantirish, 3-marta biostimulyatorlar bilan ishlov berish, 2-marta sharbat usulda sug‘orishni tashkil qilish.		(I.Raximov), ATB Agro bank (U.Razzoqov), tuman hokimligi
5.	G'o'za maydonlarida qator oralariga ishlovlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish.	<p>1. Mavjud “Mexanizatorlar uyi”da doimiy zarur shart-sharoitni yaratish, yo‘l varaqalari, talabnomalarni yuritish.</p> <p>2. Mavjud 103 ta kultivatorlarni to‘liq ishga jalb qilish, “naryad” va “otryad” usulida ish tashkil etish.</p> <p>3. Mexanizatorlar uyida bir kun muddatda barcha kultivatorlarni ishchi organlarini “baliq sirti” qilib o‘rash va obtekatellarni o‘rnatish.</p> <p>4. Suvdan chiqqan maydonlarda yer yetilishi bilan obitobida kultivatsiya qilishni tashkil qilish va begona o‘tlarni o‘toq qilish.</p>	<p>Doimiy Doimiy Bir kun muddatda</p>	<p>Tuman hokiminining o‘rinbosari (K.Jo‘rayev), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov), AKIS markazidan tumanga biriktirilgan vakil (R.Musayev), tuman hokimligi, fermer xo‘jaliklari rahbarlari</p>
6.	G'o'za maydonlarida azotli o‘g‘itlar bilan 2- oziqlantirishni yakunlash va 3-oziqrantirishni o‘z muddatida amalga oshirish.	<p>1. G'o'za maydonlarida 300 kg.dan azotli o‘g‘itlar bilan</p> <p>2-oziqrantirishni to‘liq yakunlash.</p> <p>2. G'o'za</p>	<p>Bir kun muddatda 2025-yil 15-</p>	<p>Tuman hokiminining o‘rinbosari (K.Jo‘rayev), O‘simgiliklar karantini va himoyasi bo‘limi</p>

		<p>maydonlarini 3-oziqlantirish uchun gektarga 300 kg.dan jami 1560 tonna ammiakli selitra mineral o‘g‘itlari zahirasini yaratish hamda grafik asosida 3-oziqlantirishni amalga oshirish (1-ilova).</p>	iyulgacha	(I.Raximov), Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining 1-o‘rribbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Agroinspeksiya bo‘limi (Sh.Xasanov), ATB Agro bank (U.Razzoqov), tuman hokimligi
7.	G‘o‘zani o‘sish va rivojlanishini yaxshilash hamda hosilga-hosil qo‘sish maqsadida biostimulyatorlar bilan bargidan oziqlantirish hamda o‘sishni boshqaruvchi retardantlar bilan ishlov berish.	<p>1. G‘o‘zani bargidan oziqlantirish maqsadida 28 ta OVX purkagichlarni jalb qilib, grafik asosida har 10 kunda biostimulyatorlar bilan suspenziya sepishni tashkil qilish.</p> <p>2. “Qoloq” maydonlarga har xtaftada 1-marta sepishni yo‘lga qo‘yish.</p> <p>3. G‘o‘zani holatidan kelib chiqib, gektariga 45 - 60 - 75 - 90 - 100 gr.dan o‘sishni boshqaruvchi retardantlar bilan ishlov berishni tashkil qilish.</p> <p>Ayniqsa, g‘ovlashni boshlagan maydonlarga preparatni sarf-me’yorini oshirish kerak.</p>	<p>2025-yil 5-iyuldan – 20- avgustgacha</p> <p>2025-yil 5-iyuldan 20- avgustgacha</p>	Tuman hokimining o‘rribbosari (K.Jo‘rayev), O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi (I.Raximov), tuman Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘ining 1-o‘rribbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), ATB Agro bank (U.Razzoqov), tuman hokimligi

8.	G'o'za maydonlariga maxalliy o'g'it olib chiqish va sharbat xovuzlarini tayyorlash.	<p>1. G'o'za maydonlariga gektariga 3 tonnadan jami 15 600 tonna maxalliy o'g'it olib chiqish (2-ilova).</p> <p>2. G'o'za maydonlarini suv kirish qulqlariga sharbat xovuzlarini tayyorlash.</p>	2025-yil 5-iyuldan – 20- iyulgacha 10- iyulgacha	tuman hokimining o'rribosari (K.Jo'rayev), tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi (J.Turdaliyev), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev), tuman hokimligi
9.	G'o'zani sharbat bilan sug'orishni tizimli tashkil qilish.	<p>1. G'o'zani 1-sug'orish ishlari yakunlanmagan maydonlarni uch kun muddatda sharbat bilan sug'orib yakunlash.</p> <p>2. Barcha manbaalardan olinayotgan suvdan samarali foydalanib, belgilangan limit doirasida oxirgi "qulqoq"gacha o'z vaqtida suvni yetkazib berilishini ta'minlash.</p> <p>3. Havo harorati keskin ko'tarilib ketganligi sababli g'o'zani chanqashiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, suvni yo'qotishlarni oldini olish hamda g'o'zaga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida sharbat bilan tungi sug'orishni tashkil qilish.</p>	Uch kun muddatda 2025-yil iyul-avgust 2025-yil iyul-avgust	Tuman hokimining o'rribosari (K.Jo'rayev), Suv yetkazib berish xizmati DM direktori (D.Yuldashev), Nasos stansiyalari va energetika bo'limi (X.Qulpidinov), tuman hokimligi

10.	<p>Ko'sak qurtiga qarshi kurash tadbirlarini tizimli amalga oshirish.</p>	<p>1. G'o'za maydonlariga har gektariga 1 donadan feromon tutqich o'rnatish.</p> <p>2. Feromon tutqichga kapalak tushgan maydonlarga zudlik bilan trixogramma biomahsulotini 5x5 metr sxemada 400 ta nuqtaga 1-1,5 gr.dan tarqatishni tashkil qilish.</p> <p>Shuningdek, gektariga 1000-2000 donadan oltino'z va brakon tarqatish.</p> <p>3. Ko'sak qurti tuxum qo'yishni boshlagan maydonlarga tarkibi "indoksokarb" va "emomektin benzoat" bo'lgan kimyoviy vositalar bilan tunda ishlov berishni tashkil qilish.</p>	<p>2025-yil 10-iyulgacha</p> <p>2025-yil 5-iyuldan 20-avgustgacha</p> <p>2025-yil 20-iyulgacha</p>	<p>tuman hokimining o'rribbosari (K.Jo'rayev), tuman O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi (I.Raximov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Agroinspeksiya bo'limi (Sh.Xasanov), ATB Agro bank (U.Razzoqov), tumanlar hokimligi, biolaboratoriya mudirlari, fermer xo'jaliklari rahbarlari</p>
11.	<p>O'rgimchakkana qarshi qarshi kurash tadbirlarini o'tkazish.</p>	<p>O'rgimchakkana tarqalishni boshlagan maydonlarga (propargit, geksotiazoks, flufenzin, fenpiroksimat asosli) maxsus akarisidlar bilan tunda ishlov berishni tashkil qilish.</p> <p>Bunda, g'o'zani massasi kattalashganini inobatga olib gektariga 600 litr ishchi eritma</p>	<p>2025-yil 5-iyuldan – 1-avgustgacha</p>	<p>Tuman hokimining o'rribbosari (K.Jo'rayev), tuman O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi (I.Raximov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Agroinspeksiya bo'limi (Sh.Xasanov),</p>

		sarflanishini ta'minlash kerak, ya'ni bargni orqasini yuvib tashlash kerak.		ATB Agro bank (U.Razzoqov), tuman hokimligi, biolaboratoriya mudirlari, fermer xo'jaliklari rahbarlari
12.	G'o'zani chekanka qilish tadbirlarni sifatli amalga oshirish.	<p>1. G'o'zani hosil shoxlari 12 tani tashkil qilgan o'sishda davom etayotgan va to'liq hosilga yotmagan maydonlarda chekanka tadbirini amalga oshirish.</p> <p>2. Chekanka tadbirida faqatgina o'suv nuqtani o'zini chimdib olib, fartukka solib daladan chiqarib tashlashni tashkil qilish.</p> <p>Diqqat! O'sishni boshqaruvchi retardantlar bilan o'z vaqtida bosqichmabosqich ishlov berilgan maydonlarda g'o'zalar to'liq hosilga yotib o'sishdan to'xtaydi va o'suv nuqta ham hosil elementlari bilan yopilib qoladi, bunday maydonlarda chekanka o'tkazish talab etilmaydi.</p>	2025-yil iyul-avgust	Tuman hokimining o'rribbosari (K.Jo'rayev), AKIS markazi tumanga biriktirilgan vakil (R.Musayev), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi bo shlig'ining 1-o'rribbosari (B.Burxonov), tuman Fermerlar kengashi (A.Akbarov), tuman hokimligi
13.	Paxtani yig'ib terib olish ishlarini mexanizatsiyalashtirishni jadallik bilan davom ettirgan holda 10 ta yangi paxta terish mashinalarini	<p>1. 10 ta paxta terish mashinalariga avans mablag'larini to'liq o'tkazish.</p> <p>2. Xitoyning Svan kompaniyasidan 10 ta</p>	2025-yil 15-iyulgacha 2025-yil 1-	Tuman hokimining o'rribbosari (K.Jo'rayev), ATB Agro bank (U.Razzoqov),

	sotib olish.	paxta mashinalarini qilish. 3. Paxta terish mashinalari operatorlarini o'qitish.	terish xarid avgustgacha 2025-yil 15- avgustgacha	tuman hokimligi, fermer xo'jaliklari rahbarlari
14.	Paxta qabul qilish maskanlarini paxta yig'im-terimi mavsumiga tayyorlash.	Paxta qabul qilish maskanlarini paxta y i g ' i m - t e r i m mavsumiga tayyorlash. Bunda, paxta qabul qilish maskanlaridagi elektron tarozi, kuzatuv kameralar va laboratoriyalarni soz xolatga keltirish.	2025-yil 1- avgustgacha	Tuman hokimining o'rribosari (K.Jo'rayev), Agroinspeksiya bo'limi (Sh.Xasanov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'ining 1-o'rribosari (B.Burxonov), tuman hokimligi, paxta-to'qimachilik klasteri
15.	Dala shiyponlarini ta'mirlab, obodonlashtirib paxta yig'im-terimi mavsumiga tayyorlash.	Barcha dala shiyponlarini ta'mirlab, obodonlashtirib, terimchilarga shart-sharoit yaratib paxta y i g ' i m - t e r i m i mavsumiga tayyorlashni tashkil qilish.	2025-yil 15- avgustgacha	Fermerlar kengashi (A.Akbarov), Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'ining 1-o'rribosari (B.Burxonov), tuman hokimligi, fermer xo'jaliklari rahbarlari

Farg‘ona tumanı hokimining
 2025-yil 10-iyuldagı
 157-11-163-Q/25-son qaroriga
 2-ilova

**Tumanda g‘o‘za parvarishida “Zarbdor 45 kunlik”da amalga oshirilayotgan
 ishlarini muvofiqlashtirib borish maqsadida tashkil etilgan tuman
 SHTABI TARKIBI**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	K.Jo‘rayev	- Tuman hokimining o‘rinbosari, <i>shtab rahbari</i>
2.	B.Abdulaliyev	- tuman prokurorining yordamchisi
3.	K.Sotvoldiyev	- Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari
4.	B.Burxonov	- Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari
5.	D.Yuldashev	- “Suv yetkazib berish xizmati” DM direktori
6.	X.Qulpidinov	- Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	A.Akbarov	- Fermerlar kengashi raisi
8.	Sh.Xasanov	- Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi boshlig‘i
9.	I.Raximov	- O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i
10.	R.Musayev	- AKIS markazining tumandagi vakili
11.	J.Turdaliyev	- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
12.	U.Razzoqov	- ATB Agrobank tuman filiali boshqaruvchisi

Farg'ona tumani hokimining
2025-yil 10-iyuldag'i
157-11-163-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Farg'ona tumanida 2025 yil hosili uchun ekilgan g'o'za maydonlarida azotli mineral o'g'itlar bilan 3-oziqlantirish
GRAFIGI**

№	Xududlar nomi	Paxta maydoni, ga	05.07.2025 yil kunigacha oziqlantirilgan maydon, ga	Qolgan maydon, ga	Kunlar bo'yicha oziqlantirish, (gektariga 300 kg.dan ammiakli selitra hisobida)										Jami oziqlantirilgan		
					05.июл	06.июл	07.июл	08.июл	09.июл	10.июл	11.июл	12.июл	13.июл	14.июл	15.июл	maydon	foiz
1	Damko'l Oqtom Guliston	249,4		249	19	20	21	22	24	25	26	25	23	22	21	249	100
2	Far Novkent Rustam	227,7		228	17	18	19	20	22	23	24	23	21	20	19	228	100
3	Usmonobod Tarovati	498,9		499	37	40	42	45	47	50	52	51	47	44	42	499	100
4	Yangiobod Shoximardonobod	571,7	83	488	37	39	41	44	46	49	51	50	46	43	41	572	100
5	Vodil Qizilqo'rg'on	346,4		346	26	28	29	31	33	35	36	35	33	31	29	346	100
6	Avval Usmonjon Ibroximjon	322,3		322	24	26	27	29	31	32	34	33	30	29	27	322	100
7	Yuqori Vodil birlik massivi	210,5		210	16	17	18	19	20	21	22	21	20	19	18	210	100
8	Logon Maxkam Xakimobod	230,3		230	17	18	20	21	22	23	24	23	22	20	20	230	100
9	Log'on A.Navoiy fayzi	777,0		777	58	62	66	70	74	78	82	79	73	69	66	777	100
10	Gulshan Oq oltin jilosi	134,3		134	10	11	11	12	13	13	14	14	13	12	11	134	100
11	Mindon A.Raxmonaliyev	177,8		178	13	14	15	16	17	18	19	18	17	16	15	178	100
12	Far Chimyon Qorasuv	232,4		232	17	19	20	21	22	23	24	24	22	21	20	232	100
13	Chimyon Xazrati Xuvaydo	82,2		82	6	7	7	7	8	8	9	8	8	7	7	82	100
14	Oqbilol Sobirjon	273,5		273	21	22	23	25	26	27	29	28	26	24	23	273	100
15	Yangi bog'	233,6		234	18	19	20	21	22	23	25	24	22	21	20	234	100
16	Xonqiz Raximov Ro'zimatjon	352,9		353	26	28	30	32	34	35	37	36	33	31	30	353	100
17	Qo'rg'ontepa zamin saxovati	183,5		183	14	15	16	17	17	18	19	19	17	16	16	183	100
18	Cheksho'ra Mashrab Bobur	96,2		96	7	8	8	9	9	10	10	10	9	9	8	96	100
	Tuman jami	5200	83	5117	384	409	435	461	486	512	537	522	481	455	435	5200	100

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 10-iyuldagি
157-11-163-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**Farg‘ona tumanida "Zarbdor 45 kunlik"da g‘o‘za maydonlariga mahalliy o‘g‘it chiqarish
GRAFIGI**

№	Xududlar nomi	Paxta maydoni, hektar	Mahalliy o‘g‘it chiqarish rejasi, tn (1 ga/3 tn)	Shundan kunlar bo‘yicha		
				5-10 iyulgacha	11-15 iyulgacha	16-20 iyulgacha
1	Damko‘l Oqtom Guliston	249,4	748	239	262	247
2	Far Novkent Rustam	227,7	683	219	239	225
3	Usmonobod Tarovati	498,9	1497	479	524	494
4	Yangiobod Shoximardonobod	571,7	1715	549	600	566
5	Vodil Qizilqo‘rg‘on	346,4	1039	333	364	343
6	Avval Usmonjon Ibroximjon	322,3	967	309	338	319
7	Yuqori Vodil birlik massivi	210,5	631	202	221	208
8	Logon Maxkam Xakimobod	230,3	691	221	242	228
9	Log‘on A.Navoiy fayzi	777,0	2331	746	816	769
10	Gulshan Oq oltin jilosи	134,3	403	129	141	133
11	Mindon A.Raxmonaliyev	177,8	534	171	187	176
12	Far Chimyon Qorasuv	232,4	697	223	244	230
13	Chimyon Xazrati Xuwaydo	82,2	247	79	86	81
14	Oqbilol Sobirjon	273,5	820	263	287	271
15	Yangi bog‘	233,6	701	224	245	231
16	Xonqiz Raximov Ro‘zimatjon	352,9	1059	339	370	349
17	Qo‘rg‘ontepa zamin saxovati	183,5	550	176	193	182
18	Cheksho‘ra Mashrab Bobur	96,2	289	92	101	95
Tuman jami		5200	15601	4992	5460	5148